

TEMPERAMENT VA UNING NAZARIYALARI

G'affarova Nazira Fayzulla qizi

TAFU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

e.mail.naziragaffarova@gmail.com

Toshpo'latova Muqaddas Odiljon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

muqaddastoshpolatova04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda temperament haqidagi nazariyalar, uning turlari, 4 tipdagi insonlarning individual xususiyatlari, olimlarning izlanishlari, tadqiqot va tajribalar haqida ma'lumot berilgan . Bundan tashqari siz bu tezisda temperament va xarakter bir - biridan qaysi jihatlar bilan farq qilishi haqida bilib olishingiz mumkin .

Kalit so'zlar: Xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, psixolog olimlar.

Аннотация: В данной работе представлена информация о теориях темперамента, его типах, индивидуальных характеристиках 4 типов людей, исследованиях ученых, научных исследованиях и экспериментах. Кроме того, в работе можно узнать о различиях между темпераментом и характером.

Ключевые слова: холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик, психологи-ученые.

Abstract: This thesis provides information about the theories of temperament, its types, individual characteristics of 4 types of people, research of scientists, research and experiments. In addition, in this thesis you can learn about the differences between temperament and character.

Keywords: Choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic, psychologist scientists.

Kirish:

Barchamizga ma'lumki har bir inson o'ziga xosdir . Har kimning o'ziga yarasha xarakter xususiyati bor. Lekin biz shuni bilishimiz kerakki xarakter va temperament bir-biridan kelib chiqishi jihatidan farq qiladi . Birini o'zgartirish mumkin bo'lsa , biri tug'ma

bo'lganligi sababli inson hayoti davomida saqlanib qoladi. Temperament - bu insonning tug'ma xususiyatlari va asab tizimining ishlash mexanizmidir. Xarakter esa hayot davomida , ijtimoiy muhitda , tarbiya va shaxsiy tajriba ta'sirida shakllanadigan fazilatlaridir.

Asosiy qism:

Temperament so'zi lotincha – “ temperantum” so'zidan olingan bo'lib , “aralashma”, “ nisbat “ dagam ma'nolarni bildiradi. Temperament haqidagi birinchi ilmiy tadqiqotlarni qadimgi Grek olimi Gippokrat yaratgan . Temperament 4 xil tipga bo'lnadi: Xolerik , sangvinik , melanxolik , flegmatik .

Xolerik temperamentdagi insonlarda jigar ichak faoliyatining ustunligi kuzatiladi. Bu tip vakillari qattiq , tezkor , baquvvat va oson jahllanadigan kishilardir.

Sangvink tipli insonlarda esa yurak ichagi faoliyati ustun bo'lib , ular qonning yaxshi aylanishi bilan ajralib turadi. Bu tipdagilar issiq va namlika moyil, baxtiyor , oson moslashuvchan va ijtimoiy bo'ladilar.

Flegmatik temperament sohiblarida esa miya ichagi ya'ni balg'am faoliyati yuqori bo'lib , tana sovuqqa moyil va sekin harakatlarga ega bo'ladi.

Melanxolik temperamentlilarda esa qora taloq ichagi faoliyati ustundir. Ular namlikka moyil , nozik , hissiyotlarga boy , qayg'uli va sezgir insonlardir.

Shuni bilishimiz kerakki , hech bir insonda faqat 1 ta temperament bo'lmaydi. Faqat biri domintlik ya'ni ustunlik qilishi mumkin. Bu degani barchamizda 4 temperamentning hammasi mavjud. Lekin ularning biri ko'proq ko'zga ko'rinadi va harakatlarimizda namoyon bo'ladi. Hech bir temperamentni yomon deya olmaymiz. Har birining o'ziga xos ijobiy tomoni mavjud . Bu xususiyatlar hayotimiz davomida bizning qanday muhitda yashashimizni belgilaydi deyishimiz mumkin. Chunki inson qanday bo'lsa atrofini ham o'ziga moslashtiradi.

Xolerik tip vakillarini reaktiv bo'lishadi . Ularda hissiyot tez va qo'zg'aluvchi, g'ayratli tashabbuskordir. Nizoli vaziyatlarda o'zlarini tutolmay qolishlari , qaysar , tajang , agressiv urushqoq bo'lishlari ham mumkin. Asosan yetakchi bo'lishga harakat qilishadi , urushub qolishsa kek saqlashadi va o'ch olishga harakat qilishadi .

Sangvinik temperamentlilar hissiyoti tez va kuchli , qiziqqon , harakatchan , yangi sharoitga tez moslashadigan , xushchaqchaq bo'lishadi.Ular ruhan tetik va fantaziyaga boy , hozirjavblar , lekin muammoli vaziyatlarda shoshma -shosharlik bilan qaror qabul qilishadi. Biroq bunday insonlarning bir qancha ijobiy tomonlari bor. Akademik A.P. Pavlov o'zini shu tipga kiritgan.

I.V.Pavlov flegmatiklarni — “hayotning osoyishta doimo bir xildagi sabotli va tirishqoq kishilaridir “ deya ta'kidlaydi. Ularda hissiyot sekin qo'zg'aladi , osoyishta , vazmin va yuvosh , kamgap , kayfiyatlarida esa barqororlik hukm suradi. Ularning ijobiy tomonlari shundaki , fikrlari teran va har qanday holatda ham o'zlarni tuta bilishlaridir .

Melanxolik insonlarni I.V.Pavlov “ Yangi sharoitga tushib qolsa , o'zini yo'qotib qo'yadi “ – deya ta'riflaydi. Bu insonlarda hissiyot tez ammo kuchsiz qo'zg'alishga ega. Asosan ular tortinchoq , yolg'zlikka moyil , tez tushkunlikka tushadigan , biroz shijoatsiz, ta'sirchan va tez xafa bo'ladilar. Shuning uchun ular ko'pincha tushkun kayfiyatda yurishadi. Ijobiy tomonlari shundaki , ular rahmdil , mehribon , hamdard kishilardir.

Psixolog I.V.Pavlov laboratoriyada olib borgan tadqiqotlariga ko'ra , temperamentning tiplarini oliy nerv faoliyatining tipologiyasi bilan bog'lab tushuntirgan.

Xulosa:

4 tipdagi temperamentning o'ziga xos xususiyati mavjud. Bu xususiyatlar hayot jabhalarida har biri vaziyatlardan kelib chiqqan holda albatta , foyda beradi . Biz bu xususiyatlarimizni to'g'ri qo'llay olishimiz kerak . Hech qachon salbiy xususiyatga ega bo'lgan insonlarni ayblay olmayiz. Chunki bu tug'madir . Faqat xarakter xususiyatlarimiz bilan temperament xususiyatlarimizni adashtirib yubormasligimiz kerak . Sababi o'zimizdagi yomon xulq-atvor tashqi ta'sirda rivojlangan bo'lsa , albatta o'zimiz xohlasak uni o'zgartira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғозиев Э. Ғ. Умумий психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010.
2. Немов Р. С. Психология. – Москва: Владос, 2016.
3. Павлов И. П. О типах высшей нервной деятельности. – Москва: Наука, 2008.
4. Айзенк Г. Структура личности и темперамент. – Москва: ЭКСМО, 2001.